

**“BOLALARDA O’TKIR BRONXIOLI KASALLIGI QO’ZG’ATUVCHILARI, BELGILARIVA
UNING PROFILAKTIKASI”**

Hokimov Bosimjon Shuhrat o'g'li

Ilmiy rahbar: Nargiza Fatxullayevna Nurmatova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bronxit bronxial shilliq qavatdagi yallig’lanish jarayoni bilan tavsiflangan pastki nafas yo’llarining keng tarqalgan kasalligi hisoblanadi. Bronxit belgilari va davolash usullari kasallikning shakliga bog’liq: o’tkir yoki surunkali, shuningdek kasallikning bosqichi haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Bronxit, nafas yo’llari, nafas olish sistemasi, patologiya, halqum, kekirdak, bakterial bronxit, etiologiya.*

Bronxitni davolash barcha shakllari va bosqichlarida zudlik bilan boshlanishi kerak va to’liq tugatilishi kerak: bronxlardagi yallig’lanish jarayoni nafaqat hayot sifatiga, balki xavfli og’ir asoratlar, pnevmoniya, surunkali obstruktiv o’pka kasalligi va yurak-qon tomir tizimi funktsiyasi buzilishi va kasalliklariga sabab bo’ladi.

Bronxit – nafas yo’llari patologiyalari ichida eng ko’p tarqalgan o’tkir kasallik. Bronxit har qanday yoshda uchraydi. Ammo, bolalarda, ayniqsa kichik yoshdagi bolalarda ko’proq uchraydi va kattalarga qaraganda og’irroq kechadi. Shu sababli otanonalar bronxit haqida batafsil bilishlari, uning belgilari va davolash muolajalari haqida ma’lumotga ega bo’lishlari zarur. Bolalarda bronxit ko’p hollarda infeksiya natijasida kelib chiqadi, lekin bronxit kelib chiqishiga noinfektsion sabablar ham bor. Bronxlar – inson nafas olish tizimidagi eng muhim qismlaridan biri. Inson nafas olganda havoning halqum va traxeya (kekirdak) lardan o’tadi, so’ngra bronx tizimiga tushadi va o’pkalarga kislorod yetib boradi. Inson nafas chiqarganda o’pkada almashgan gazlar (karbonat angidrid gazi) bronxlar orqali, so’ng traxeyadan o’tib qayta tashqi muhitga chiqariladi. Bronxlar yuzasi shilliq va sezgir kiprikchalar bilan qoplangan. Bu tuzilmalar bronxlarga tushgan har qanday moddalarni tashqariga chiqarishda ishtirok etadi. Shunday qilib bronxlar o’tkazuvchanligi biror bir salbiy omil natijasida buzilsa, bu nafas olish jarayoniga salbiy ta’sir etadi, natijada organizmning kislorod bilan ta’minlanishi pasayadi. Bronxit – bronxlar shilliq qavatining yallig’lanishidir. Bu kasallik ko’proq bolalarda uchrashiga sabab bolalarning immun tizimi sust bo’lishi va nafas a’zolarining to’liq rivojlanmaganligidir. Statistika bo’yicha har yili 1000 ta bolaning 200 tasi bronxitkasalligiga chalinadi. Ko’proq 5 yoshgacha bo’lgan bolalar kasallanadi. Bronxitlar qish mavsumida ko’payadi.

Bronxit kasalligi turlari.

Bronxitning bir necha ko’rinishlari bor – oddiy obstruktiv bronxit. Kechishi bo’yicha – o’tkir va surunkali. Surunkali bronxit deb bolalarda ushbu kasallikning 3-4 oygacha cho’zilishiga aytiladi. Bundan tashqari, bolalarda bronxiolalarning yallig’lanishi – bronxiolit ham uchrab turadi.

Obstruktiv bronxit – bolalarda bronxlarda shilliq to‘planishi yoki spazm ro‘y berishi natijasida, a‘zoning torayib (yopilib) qolishidir. Bolalarda bronxit – bir taraflama yoki ikki taraflama bo‘lishi mumkin, bundan tashqari, bir bronx daraxti yoki bir necha bronx daraxtlarining yallig‘lanishi ham farqlanadi. Agar yallig‘lanish faqatgina bronxlarda emas balki traxeyada bo‘lsa –traxeobronxit, agar o‘pkalarda va bronxlarda bo‘lsa – bronxopnevmoniya deb nomlanadi.

Bolalarda nafas olish a‘zolari kattalarniki kabi yaxshi shakllanmagan bo‘ladi. Aynan mana shu xususiyat bolalarda bronxit kasalligining ko‘p uchrashiga sabab bo‘ladi. Bolalarda nafas a‘zolari kamchiliklariga quyidagilar kiradi:

Nafas yo‘llarining kaltaligi – infeksiyaning kirishini osonlashtiradi;

O‘pka hajmining kichikligi;

Nafas mushaklarining kuchsizligi – balg‘am ko‘chirishda yo‘talishning sustligi;

Shilliq qavatlarda yetarlicha immunoglobulinlar bo‘lmasligi;

Tonzillit va adenoidlarga moyillik yuqoriligi.

Bronxitlar ko‘p hollarda ikkilamchi kasallik sifatida namoyon bo‘ladi. Bu patologiya yuqori nafas yo‘llari kasalliklari asoratidir – faringit, laringit, tonzillit kabi. Nafas yo‘llarining yuqori qismidagi bakteriya yoki viruslarning pastki qismlarga o‘tishi natijasida kasallik kelib chiqadi. Shifokor mutaxassislar ta‘kidlashicha, birlamchi bronxit, ya‘ni infeksiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri bronxlarga ta‘siri kam hollarda uchraydi. Bronxitlar kelib chiqishida – gripp, paragripp, rinovirus, adenoviruslarning o‘rni katta. Ko‘pincha bolalar bakterial bronxit bilan kasallanadilar. Maktab yoshidagi bolalarda xlamidiyalar sababli kelib chiqadigan bronxit ham uchrab turadi. Birlamchi bronxit ham kam bo‘lsada uchrab turadi.

Odatda bunga sabab mayda jismlarning bronx yo‘llariga tushishi yoki chaqaloqlarda ovqat mahsulotlari aspiratsiya holatlari bo‘lishi mumkin. Bola yo‘talganidan keyin yot jism tashqi muhitga chiqib ketadi, ammo ular bilan birga tushgan bakteriyalar bronx shilliq qavatida ko‘payadi va patogenligini boshlaydi. Kam hollarda bronxit zamburug‘lar ta‘sirida ham kelib chiqadi. Bronxitning yana bir ko‘rinishi allergik bronxitdir. Uning namoyon bo‘lishi tashqi qo‘zg‘atuvchi ta‘siri bilan tushuntiriladi, masalan dori preparatlari, kimyoviy moddalar, chang, hayvonlar yungi, o‘simliklar changi va boshqalar.

Bolalarda bronxit kelib chiqish xavfini oshiruvchi omillar quyidagilardir.

Immunitetning sustligi;

Sovuq qotish;

Haroratning birdan o‘zgarishi;

Juda quruq havo, ayniqsa isitgichlar ishlab turgan xona havosidan nafas olish;

Nafas yo‘llari shilliq qavatining qurib qolishi;

Avitaminoz;

Passiv “tamaki mahsulotlarini chekish” ;

Yondosh kasalliklar, masalan mukovisidoz.

Bir yoshgacha bo'lgan bolakaylarda bronxit kam hollarda uchraydi, chunki bu yoshda go'daklar qarindoshlari, begona shaxslar bilan kontakda bo'lmaydi. Bu yoshda bronxit rivojlanishiga olib keluvchi omillar – bolaning chala tug'ilganligi, nafas yo'llari tug'ma patologiyalari bo'lishi mumkin. Bolalarda bronxit belgilari boshqa nafas kasalliklari belgilaridan farq qiladi.

Bolalarda o'tkir bronxit belgilari

Bolalarda bronxit belgilari boshqa nafas kasalliklari belgilaridan farq qiladi. Bolalarda bronxit belgisi deganda birinchi bo'lib yo'tal tushuniladi. Ammo, yo'tal nafas yo'llarining boshqa kasalliklarida ham kuzatiladi. Xo'sh, bronxitda yo'talning o'ziga xos xususiyatlari nimasi bilan farqlanadi?

Bolalarda bronxitning ilk belgilari quruq yo'taldan boshlanadi, ya'ni balg'am ajralmaydigan yo'tal. Balg'am ko'chishi va nam yo'tallar boshlanishi kasallik tuzalayotganidan dalolat beradi. Balg'am rangsiz, sarg'ish yoki yashil rangda bo'lishi mumkin.

Bronxit sabablari

Bolalarda nafas olish a'zolari kattalarniki kabi yaxshi shakllanmagan bo'ladi. Aynan mana shu xususiyat bolalarda bronxit kasalligining ko'p uchrashiga sabab bo'ladi. Bolalarda nafas a'zolari kamchiliklariga quyidagilar kiradi:

- Nafas yo'llarining kaltaligi – infeksiyaning kirishini osonlashtiradi;
- O'pka hajmining kichikligi;
- Nafas mushaklarining kuchsizligi – balg'am ko'chirishda yo'talishning sustligi;
- Shilliq qavatlarda yetarlicha immunoglobulinlar bo'lmasligi;
- Tonzillit va adenoidlarga moyillik yuqoriligi.

Bronxitlar ko'p hollarda ikkilamchi kasallik sifatida namoyon bo'ladi. Bu patologiya yuqori nafas yo'llari kasalliklari asoratidir – faringit, laringit, tonzillit kabi. Nafas yo'llarining yuqori qismidagi bakteriya yoki viruslarning pastki qismlarga o'tishi natijasida kasallik kelib chiqadi. Shifokor mutaxassislar ta'kidlashicha, birlamchi bronxit, ya'ni infeksiyaning to'g'ridan-to'g'ri bronxlarga ta'siri kam hollarda uchraydi. Bronxitlar kelib chiqishida – gripp, paragripp, rinovirus, adenoviruslarning o'rni katta.

Bolalarda bronxiolit va obstruktiv bronxit belgilari

Bolalarda bronxiolit va obstruktiv bronxitning belgilari oddiy (kataral) bronxit belgilaridan farq qiladi. Ha aytgancha, ko'pchilik mutaxassislar bronxiolit va obstruktiv bronxiolitni farqlashmaydi. Bu kasallikda ham yo'tal va tana harorati oshishi kuzatiladi. Ammo, bronxiolit va obstruktiv bronxitda belgilarga nafas yetishmovchiligi alomatlari ham qo'shiladi – nafas olish soni ortadi, og'iz-lab uchburchagida ko'karish kelib chiqadi, nafas olish shovqinli bo'ladi va qo'shimcha qorin mushaklari ham ishtirok etadi.

Bolalarda obstruktiv bronxitda ko'krak sohasida xirillashlar eshitiladi. Odatda nam va xushtaksimon xirillash kuzatiladi. Ba'zida bunday tovushlarni fonendoskopisiz ham masofadan eshita bo'ladi. Nafas chiqarish esa uzayadi.

Emizikli bolalarda obstruktiv bronxitda hansirash belgisi sifatida nafas olish sonining bir daqiqada 60 martagacha amalga oshishini keltirsak bo'ladi, 2 yoshgacha bo'lgan bolalarda – 50 martagacha, 2 yoshdan katta bolalarda – 40 martagacha nafas olish hansirash alomatidir.

Bronxiolit kasalligida hansirash – 1 daqiqada 80-90 martagacha nafas olish bilan namoyon bo'ladi, bunda yurak tomonidan taxikardiya holatlari ham kelib chiqishi mumkin, hamda yurak tonlari bo'g'iqlashishi kuzatiladi.

Bolalarda bronxit belgisi deganda birinchi bo'lib yo'tal tushuniladi. Ammo, yo'tal nafas yo'llarining boshqa kasalliklarida ham kuzatiladi. Xo'sh, bronxitda yo'talning o'ziga xos xususiyatlari nimasi bilan farqlanadi? Bolalarda bronxitning ilk belgilari quruq yo'taldan boshlanadi, ya'ni balg'am ajralmaydigan yo'tal. Balg'am ko'chishi va nam yo'tallar boshlanishi kasallik tuzalayotganidan dalolat beradi. Balg'am rangsiz, sarg'ish yoki yashil rangda bo'lishi mumkin. O'tkir bronxitda bolalarda yana bir belgi – tana harorati ko'tarilishi ham kelib chiqadi. Ammo, bronxit kasalligida ko'rsatkichlar juda yuqori bo'lmaydi, ko'pincha subfebril ko'rsatkichda yoki 39 oC gacha ko'tarilishi mumkin. Bu ko'rsatkich o'pka to'qimasining yallig'lanishida tana harorati oshishiga nisbatan past hisoblanadi. Kataral (oddiy) bronxitda tana harorati 38 oC dan oshmaydi. Bronxitning yana bir simptomi umumiy intoksikatsiya belgilari – bosh og'rig'i, holsizlik, ko'ngil aynishi, emizikli bolakaylarda uyqu buzilishi va oziqlanishdan bosh tortish kabi holatlar kelib chiqadi. Bolalarda bronxit kasalligida nafas yo'llari auskultatsiyasida (eshitib ko'rilganda) ko'krak sohasida quruq xirillashlar eshitiladi. Mikoplazmalar ta'siri natijasida kelib chiqadigan bronxitda tana harorati yuqori bo'ladi, ammo umumiy intoksikatsiya belgilari kuzatilmaydi.

Xulosa:

Yuqorida keltirib o'tilganidek, bronxit ko'pincha yuqori nafas yo'llari kasalliklari asorati sifatida rivojlanadi. Demak bronxit belgilari bilan birga faringit, laringit, rinit belgilari ham yuzaga chiqadi, masalan burun bitishi, tomoqda og'riq, burun oqishi, shilliq qavatlar giperemiyasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.N.Abdullayev,H.Karimova Patologik fiziologiya Toshkent-2008[1]
- 2.M.Abdullaxo'jayeva Patologik fiziologiya Toshkent-2012[2]
3. Elskova O.S., Nikitina E.A., Zhuravleva O.L. Study of comorbid pathology in patients with type 2 diabetes // Human and Medicine - Kazakhstan. 2015 year. No. 12 (58). Pages 126-129.
4. Metreveli D.S., Sulxanishvili M.Z., Margvelashvili M.Z. Prevalence of retinopathy in patients with type 2 diabetes Problems of endocrinology. 2016. V.52, No. 4. b. 6-8.
- 5.O.Chartoqov Umumiy patologiya Toshkent-2014[5]